

Joriy yilning 7-12 aprel kunlari Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti vakillari **“International Credit Mobility” (KA107) Erasmus+** dasturi doirasida Italiyaga tashrif buyurishdi.

Mazkur tashrif doirasida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU hamda Italiyaning Sannio universiteti (**Università degli Studi del Sannio**) o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi.

Shuningdek, tadbirda Benevento shahri hokimi Dr. Francesco Antonio Cappetta, Uzbekistonning Italiyadagi elchixonasi konsuli Rashidov Shukhrat Shavkatovich, Sannio universiteti rektori Prof.Filippo de Rossi, "San-Pio" kasalxonasi boshlig'i Dr. Renato Pizzuti, professor Pasquale Deponete, Milliy ERASMUS + agentligining mas'ul xodimi va bir qator boshqa mutassadilar qatnashishdi.

Uzbekistondan esa Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU professori M.A. Raxmatullayev, dotsent B.Ganiyeva, katta o'qituvchi K. Shukurovlar ishtirok etishdi. Endilikda hamkorlik shartnomasi doirasida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU va Sannio univesiteti o'rtasida talabalar almashinuvi, o'quv va ilmiy sohalarda hamkorlikni amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, hozirgi kunda “International Credit Mobility” asosida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATUning 3 nafar magistratura talabalari M.Odinaev, K.Xusanov, B.Nurnazarovlar Sannio universitetida tahsil olishmoqda.

Hamkorlik shartnomasini imzolash jarayoni Italiyaning bir qator OAVlari tomonidan keng yoritildi.

Batafsil:

ntr24.tv: [Innovazione e formazione medica, il Sannio ospita studenti e ricercatori dell'Uzbekistan](#)

Youtube: [Sannio e Uzbekistan, una intesa a tre punte](#)

tvsette.net: [Visita in città del Console dell' Uzbekistan. Doppia tappa: Prefettura e A.O. San Pio. VIDEO](#)

TATU matbuot xizmati